

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI SAMARQAND FILIALI



**“JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDA DEMOKRATIK O‘ZGARISHLAR VA
RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

**3-MAVZU: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ
TA’LIMI TIZIMINI 2030-YILGACHA RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI.
JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIGA OID DAVLAT SIYOSATI.**


O‘qituvchi: Xudayberdiyeva Xuriyat Karimberdiyevna



REJA:

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi

1



Jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid davlat siyosati. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining beshta muhim tashabbusi va yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish masalalari

2

O‘zbekiston Respublkasi Prezidentining 2019-yilning 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni qabul qilindi.

4 bob

9 band

2 ilova

**48 ta
ko‘rsatkich**

O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;



o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish;

xalq ta'limi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va budjetdan mablag' bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish;

yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etish;

davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta'lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish;

yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish;

xalq ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatishning jozibadorligini oshirish maqsadida umumiy o'rta ta'lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish.

KONSEPSIYANI AMALGA OSHIRISHDAN KUTILAYOTGAN NATIJALAR

01

STEAM fanlarni va tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg‘u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta‘lim dasturlari va yangi davlat ta‘lim standartlari joriy etiladi;

02

2030-yilga qadar STEAM-fanlarni hisobga olgan holda innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beruvchi yangi davlat ta‘lim standartlari va dasturlari joriy etilishi lozim.

03

Ta‘lim dasturlari va muassasalarini akkreditatsiya qilish uchun O‘zbekiston Respublikasining yetakchi xalqaro birlashmalarga kirishi ta‘minlanadi

04

xorijiy til, aniq hamda tabiiy fanlarni chuqur o‘rganishga mo‘ljallangan didaktik materiallar va multimedia mahsulotlarining yangi avlodlari tayyorlanadi

KONSEPSIYANI AMALGA OSHIRISHDAN KUTILAYOTGAN NATIJALAR

05

4 860 umumta'lim muassasasi tasdiqlangan baholash mezonlariga muvofiq "Zamonaviy maktablar"ga aylantiriladi

06

maktabdan tashqari ta'lim sifatini oshirish va bolalarni maktabdan tashqari ta'lim xizmatlari bilan qamrab olish o'quvchilar umumiy soniga nisbatan 50 foizga yetkaziladi;

07

oliy ta'lim muassasalarida "Xalq ta'limi sohasida boshqaruv" yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi;

08

umumta'lim fanlari bo'yicha 3 mingga yaqin pedagog ixtisosligi bo'lmagan kadrlar pedagogik va kasbiy qayta tayyorlash kurslarida o'qitiladi;

JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDAGI DAVLAT SIYOSATI

2015 yil 4 sentabrda O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi (yangi tahrirda) qabul qilindi. Ushbu qonun 8 bob, 47 moddadan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-apreldagi “Ma‘muriy islohotlar doirasida yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-114-son

Quyidagilar Yoshlar siyosati va sport vazirligi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi:

Aholi o‘rtasida sportni ommalashtirish va sog‘lom turmush tarziga keng jalb etish, sport ta‘lim tizimini takomillashtirish, sport turlari bo‘yicha yuqori natijador sportchilar zaxirasini yaratish;

Olimpiya va Paralimpiya harakatini rivojlantirish, nufuzli xalqaro musobaqalarda sportchilarning muvaffaqiyatli ishtirokini ta‘minlash;

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

har kimning jismoniy tarbiya va sport bilan erkin shug'ullanishga bo'lgan huquqini ta'minlash;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat hamda jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish;

fuqarolarning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi huquqlarining davlat kafolatlarini belgilash;

jismoniy tarbiya va sport sohasida kamsitishga hamda zo'ravonlikka yo'l qo'ymaslik;

jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi shaxslarning, shuningdek jismoniy tarbiya va sport tadbirlari ishtirokchilari hamda tomoshabinlarining hayoti va sog'lig'i xavfsizligini ta'minlash;

sportning barcha turlari va tarkibiy qismlarini rivojlantirishga ko'maklashish.

Yoshlar siyosati va sport vazirligi tasarrufida 254 ta sport maktabi, 56 ta ixtisoslashtirilgan sport maktabi mavjud

Sport maktablariga 4 yoshdan 30 yoshgacha boʻlgan bolalar va yoshlar qabul qilinadi.

Sport maktablari kontingenti faqat Olimpiya va Paralimpiya, Osiyo va Paraosiy oʻyinlari dasturiga kiritilgan (bundan milliy kurash hamda alohida Hukumat qarorlari bilan belgilangan sport turlari mustasno) sport turlari boʻyicha shakllantiriladi.

Sport maktabining sport-sogʻlomlashtirish va boshlangʻich tayyorgarlik guruhlarida tayyorgarlikdan oʻtgan, professional sportga salohiyati bor oʻquvchilari ixtisoslashtirilgan sport maktabining tegishli yoʻnalishiga (sportning oʻyin turlari va yengil atletika, suv sporti turlari, yakka kurash va gimnastika) oʻqishga qabul qilinadi.

Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida oʻqish jarayoni 2 ta bosqichda amalga oshiriladi:

- birinchi bosqichda 5–11-sinflar uchun Olimpiya maktablari;
- ikkinchi bosqichda 1–2-kurslar uchun Olimpiya va Paralimpiya kollejlari faoliyat koʻrsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining beshta muhim tashabbusi va yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish masalalari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash masalalariga bag‘ishlangan kompleks chora tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni ilgari surdi.

Ushbu 5 tashabbus xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Butun mamlakat bo‘ylab keng quloqch yozayotgan **5** muhim tashabbusni amalga oshirishda juda katta ezgu g‘oya, hikmat, ilmiy tafakkur mahsuli bo‘lgan ulug‘ maqsad-muddaolar bor.

BESHTA MUHIM TASHABBUS

I. Aholini madaniyat, teatr, san'atga qiziqtirish

II. Yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish



V. Xotin-qizlarni ijtimoiy faol hayotga jalb etish

III. Kompyuter texnologiyalari va internetdan foydalanish madaniyatini rivojlantirish

IV. Aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish

BIRINCHI TASHABBUS

Yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.



IKKINCHI TASHABBUS

Yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan.



UCHINCHI TASHABBUS

aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.



TO‘RTINCHI TASHABBUS

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.




BESHINCHI TASHABBUS

Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.



- **E'tiborlaringiz uchun rahmat!**



- **rasmiy veb-sayt**
- **<http://www.samsportedu.uz>**
- **maxsus rasmiy telegram kanal**
 - **<https://t.me/sfmalaka>**